



UDK:37.018.43:004:37.091.3

Gulasal HOJIKARIMOVA,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, PhD
E-mail: g.hojikarimova@gmail.com

PhD N.Nosirov taqrizi asosida

METHODOLOGY OF DEVELOPING SPECIAL COMPETENCES IN PREPARING FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Аннотация

This article discusses the technology of professional development based on an integrative approach to improving the methodology of teaching clothing design and modeling in the development of special competencies of future technological education teachers. The main purpose of the study is to analyze the practical integration of modern pedagogical approaches and technologies in the process of teaching clothing design, as well as to develop effective methodologies for teaching students modeling and design. The article justifies the need to introduce new pedagogical technologies in vocational education, including methodological and practical aspects.

Key words: Design, modeling, integrative approaches, special competence, pedagogical technologies, innovation.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается технология профессионального развития, основанная на интегративном подходе к совершенствованию методики обучения дизайну и моделированию одежды в процессе развития специальных компетенций будущих учителей технологического образования. Основная цель исследования – анализ практической интеграции современных педагогических подходов и технологий в процесс обучения дизайну одежды, а также разработка эффективных методик обучения студентов моделированию и конструированию. В статье обосновывается необходимость внедрения новых педагогических технологий в профессиональное образование, включая методические и практические аспекты.

Ключевые слова: Дизайн, моделирование, интегративные подходы, специальные компетенции, педагогические технологии, инновации.

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Аннотация

Mazkur maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda kiyimlarni loyihalash va modellashtirishni o'rgatish metodikasini takomillashtirishda integrativ yondashuv asosida kasbiy rivojlantirish texnologiyasi yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kiyim dizaynini o'rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning amaliy integratsiyasini tahlil qilish, shuningdek, talabalarga modellashtirish va dizayn o'rgatishning samarali metodikalarini ishlab chiqishdan iborat. Maqola metodologik va amaliy jihatlarini o'z ichiga olgan holda, kasbiy ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Dizayn, modellashtirish, integrativ yondashuvlar, maxsus kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya.

Kirish. Dunyoning rivojlangan Rossiya, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarida yuqori kasbiy kompetentlikka ega, muammoga kreativ yondashuvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, ta'limda innovatsiyalarni, shu jumladan, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarni keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarida o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmani shakllantirish va hosil bo'lgan malakalardan kundalik faoliyatda muvaffaqiyatli foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, muammoga kreativ yondashish ishlab chiqarish faoliyatda o'z tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar turli sohalar uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni

ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib natijada bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim oluvchilarni sohaga doir bilimlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bu oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion xarakterga ega bo'lgan muhitda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish shu kunning dolzarb muammolardan hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida turli yo'nalishlar uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida zamonaviy yondashuvlarni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish ishlari faol olib borilmoqda. Bu jarayon ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, sohaga oid bilimlarni kengaytirish, hamda real iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'limning uzluksizligini ta'minlash, pedagogik yo'nalishlarda ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu islohotlar oliy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish, mutaxassislarining intellektual va kasbiy salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, ularning mehnat bozorida munosib o'rin egallashini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz.

Maqolaning maqsadi – Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda talabalarga kiyimlarni loyihalash va modellashirishni o'rgatish metodikasini takomillashtirishda integrativ yondashuvlar, innovatsion yondashuvlar orqali yangi yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

Kiyimlarni loyihalash va modellashirish bo'yicha ta'lim metodikasi sohasida bir nechta muhim tadqiqotlar mavjud. Xususan, Gulnora Jumayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarga kiyim dizayni asoslarini o'rgatishda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqaning ahamiyatini ta'kidlaydi. "Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati" esa, o'z navbatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda innovatsion texnikalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganadi. "Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari" nomli tadqiqotda esa zamonaviy axborot texnologiyalarining modellashirishda foydalanish usullari batafsil ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, kiyimlarni loyihalashda dizayn va modellashirishning metodologik jihatlari bo'yicha yangi adabiyotlar ham mavjud. "Ta'lim jarayonida innovatsion axborot texnologiyalari" asarida talabalarining loyihalash jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish muhimligi ta'kidlanadi, bu esa kiyim dizayni bo'yicha chuqur bilimlarni shakllanti-rishga yordam beradi [1, 2].

Q. M. Abdullayeva tadqiqot ishlarida kasb ta'limi bo'lajak o'qituvchilarining maxsus fanlar bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari mazmuni ilmiy tadqiq qilingan, tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashirishni dizayn elementlari bilan bog'lab amalga oshirish metodikasi ishlab chiqilgan [3].

N. N. Karimovanning ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi mazmuni hamda uni rivojlantirish muammolari o'rganilgan bo'lib, Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi tarkibiy tuzilmasi, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining integrativ mashg'ulotlari (fashion illustration, casual) asosida talabalarining ijodiy-yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan [4].

S. Yu. Rajabovanning ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi o'rganilgan bo'lib, effective practical result, team creative collections va buddying kabi interfaol ta'lim metodlarining samarali imkoniyatlaridan foydalanish orqali umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan amaliy ta'limni tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan. Shu bilan bir qatorda, innovatsion xarakterli ijodiy loyiha, for-eskiz, kombinatorika, dekonstruksiya, andozani gradatsiyalash, eskizni stilizat-siyalash va transformatsiyalash topshiriqlarini bajarish bosqichlari kasbiy ehtiyojlar va ish beruvchilar talabalarini maksimal darajada qanoatlantirishga yo'naltirilgan. Bu metodikalar "Autodesk Sketchbook", "NanoCAD",

"Marvelous Designer" kabi kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali ishlab chiqilgan [5].

A.F.Umarova ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining loyihalash va modellashirish va kiyim dizayni sihasidagi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi, AKT savodxonligi zamonaviy texnologik taraqqiyotning talablari yetarlicha javob bermasligi, mazkur muammo bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish va ulardan amaliyotda o'quv mashg'ulotlarining tarkibi, shakllari, usullarini takomillashtirish metodikalari ishlab chiqilgan.[5]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

1. Analitik metod – mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish orqali kiyimlarni loyihalash va modellashirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni aniqlash.

2. Eksperimental metod – tajriba sifatida o'quv jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, natijalarni o'lchash va baholash.

3. Special – raqamlashtirish asosida talabalar tomonidan o'rganilgan bilimlar va o'quv natijalarini statistik tahlil qilish.

4. Sotsiologik tadqiqot metodlari – talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi fikr almashinuvi, tajriba va qarashlarni tahlil qilish uchun so'rovnomalar hamda intervyular o'tkazish [6, 8].

Bu metodikalar o'qituvchilarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashda maxsus kompetentligini rivojlantirish uchun bir nechta samarali usullardan faqat bir qismi hisoblanadi. Har bir o'qituvchi va har bir maktab o'zining xususiyatlari va talablari bo'yicha o'z metodikalarini rivojlantirishi mumkin. Texnologik ta'lim darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash, metod va vositalari, ta'lim jarayonining muvaffaqiyati, uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitishda turli yangi pedagogik texnologiyalar metodlarini qo'llash asosiy o'rin egallaydi. Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro xamkorligi va uzviy ravishda faollik ko'rsatishidir.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda kiyimlarni loyihalash va modellashirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarining o'qish motivatsiyasini oshiradi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Misol uchun, virtual modellashirish dasturlaridan foydalanish talabalarga kiyim dizaynini tezda yaratish va real vaqt rejimida uning o'zgarishini ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, interaktiv o'qitish usullari, masalan, simulyatsiyalar va onlayn kurslar, talabalarga o'z bilimlarini mustahkamlash va yangi usullarni o'zlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi [7].

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda, ularga ixtisoslik fanlar turkumiga kiruvchi "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashirishning avtomatlashtirilgan tizimlari" fanini, kiyim modelini yaratishda uning dizaynini mukammal o'rgatish maqsadga muvofiq. Talabalar o'z mutaxassisliklarining mohir ustasi bo'lishlari uchun ularni konstruktorlik-texnologik prinsipi asosida rassom-modelyer-texnologga qo'yiladigan kompleks talabalar darajasida tayyorlash maqsadga muvofiq. Texnologik ta'lim fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentligini rivojlantirishning bir nechta usullari mavjud. Bu usullar, o'qituvchilarni fikrlash, muhokama qilish va o'rganish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularga yangiliklar kiritishga imkon beradi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiyim dizaynini o'rgatish jarayonida talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion

yondashuvlar, integrativ yondashuvlar nafaqat talabalarning o'quv ko'nikmalarini, balki ularning ijodiy salohiyatini ham oshirishga yordam beradi.

“Texnologik ta'lim o'qituvchisini tayyorlash jarayonida integrativ yondashuvni joriy etish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyatda moslashuvchanlikni oshirish: rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'zlashtirish, bu tajribalarni ta'lim oluvchilar tomonidan to'ldirib borish va ularga o'z nuqtai nazaridan yondashuvni shakllantirish;

- Ta'lim oluvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligi: kasbiy etika va "Men" konsepsiyasining rivojlanishini faol o'zlashtirish va shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

- Zamon talablariga moslashish: ta'lim oluvchining o'zini doimiy ravishda rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish". Ushbu integrativ yondashuv, ta'lim jarayonida zamonaviy talablarni inobatga olgan holda, texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarining kasbiy malakasini rivojlantirish jarayonida darsdan tashqari faoliyatini faollashtiradigan usullarga kvazi-professional muhitni yaratuvchi o'yinlar kiradi. Ular tezkor va strategik maqsadlar va ularning muvaffaqiyatli yutuqlari uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, professional kompetensiyasini oshirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida bilim va amaliy-kasbiy bilimlarni rivojlantiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda (ma'ruza, amaliy, kurs ishi, mustaqil ta'lim) ta'lim shakllarining o'zi yetarli emas. Bu jarayonda talabalarining malakaviy amaliyotlari, bitiruv malakaviy ishini ham inobatga olish zarur. Shu sababli, talabalarni ma'ruza, amaliy, tajriba, kurs ishi va mustaqil ta'limdan tashqari malakaviy amaliyoti va bitiruv malakaviy ishini bajarish hamda himoya qilishni tashkil etish jarayonlari kompleks o'rganildi va pedagogik va ixtisoslik fanlar integratsiyasi mazmunini ishlab chiqishda e'tiborga olindi.

Ta'lim jarayoniga an'anaviy yondashuvlar va integrativ yondashuvlar asosidagi qiyosiy tahlili

№	An'anaviy yondashuv	Ta'lim jarayoni asoslari	Integrativ yondashuv
1	Sohalar bo'yicha muayyan talab va ehtiyojlarga mos holda yo'naltirilganligi birligi	Texnologik ta'lim mutaxassisligi ning malaka talablari	Fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanish tendentsiyasi hamda ish beruvchilar talablariga muvofiq yo'naltirilganligi
2	Texnologik ta'lim yo'nalishlarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar hajmi, joylashish tartibi va qisqacha mazmuni	O'quv reja va dasturlari	Kredit-modul tizimi asosida o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar hajmi, joylashishi va qisqacha mazmuni tartibga solish
3	O'quv mashg'ulotlarini guruh (jamoaviy) shaklda o'tkazish tartibi	Ta'limni tashkil etish shakllari	O'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlikka yoki kichik guruhlarga ajratgan holda yoxud jamoaviy munozara shakllarida tashkil qilish
4	O'qitish jarayonini o'qituvchi rahbarligi ostida nazariy va amaliy shakllarda tashkil qilish jarayoni	Ta'limni tashkil qilish jarayonida qo'llaniladigan texnologiya va metodlar	Ta'lim jarayonini innovatsion ta'lim texnologiya va metodlari ("Buddying" texnologiyasi, "ADDIE modeli", "SAM modeli", "SPECIAL" metodlari) asosida samarali tashkil qilish
5	Ta'lim beruvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimida ta'limga, o'quv dasturlariga, o'quv mashg'ulot jarayonlariga qat'iy ravishda ta'lim muassasasi va o'qituvchi hohishi nuqtai nazaridan yondashiladi.	Ta'lim beruvchining faoliyat jarayonidagi o'rni	Talabalarining qiziqishlari, ehtiyojlari, mutahassislik va mehnat bozori talablarini chuqur tahlil qilgan holda talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi
6	Talabalar nimani, qancha, qanday usulda o'rganishi belgilab berilishi "Tinglovchi", "qabul qiluvchi", "xotirasida saqlovchi" sifatida harakatlanishi	Ta'lim oluvchilarning faoliyat jarayonidagi o'rni	Talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o'zlari uchun o'zlari qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratiladi
7	Savol-javoblar va uyga vazifa natijalarini (5-a'lo, 4-yaxshi, 3-qoniqarli mezon bo'yicha) baholash.	Nazorat va baholash	Innovatsion texnologiya va metodlari qo'llanilishida yuzaga keladigan no'an'anaviy topshiriqlar, keyslar, nostandart testlar, kreativ topshiriqlar kabilarning natijalarini (motivatsion-qadriyatli (yuqori), ijodiy faoliyatli (o'rta), operatsion-texnologik (quyi) mezon va darajalar asosida) baholanishi.

Natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarga kiyimlarni loyihalash va modellashtirishni o'rgatish metodikasini takomillashtirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish samarali bo'ladi. Shu maqsadda quyidagi takliflar bildiriladi:

• kiyim dizayni bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanish;

• talabalarni kreativ fikrlash va mustaqil ishlarni amalga oshirishga rag'batlantirish uchun interaktiv pedagogik metodlarni kengaytirish;

• o'qituvchilarga innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rgatish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish;

• kiyimlarni modellashtirish va dizayn qilishda ilg'or dasturlarni o'qitishda samarali qo'llash. Shu bilan birga, bu yondashuvlar kasbiy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Jumayeva Gulnora Amirqulov (2024). Ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali, 45-son, 1-qism.

2. Ollaberganova R. K. (2024). Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, Vol.1, No5.
3. Abdullayeva Q. M. (2006). Maxsus fanlarni o’qitishda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy bilim va ko’nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari (Kasb ta’limi – “Servis” yo’nalishi misolida), p.f.n.
4. Karimova N. N. (2018). Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
5. Rajabova S. Yu. (2020). Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining konstruktorlik-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
6. Fotima Abdurahimovna Umarova (2021). Talabalarga kiyimlarni loyihalash va modellashtirishni o’rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligiga erishish. “Центр инновационных технологий” (O‘zbekiston), (103).
7. Xojikarimova Gulasal Tadjaliyevna (2025). Integrativ yondashuv asosida bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
8. Xojikarimova Gulasal Tadjaliyevna (2023). Integrativ yondashuv asosida bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari. Pedagogika.(2023/1)